

TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQ TUXUMLARINI INKUBATSIYA JARAYONIGA TAYYORLASH

A.X.Xolmatov

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti

Q.x.f.n., dotsent

H.T.Hasanov

Tayanch doktorant

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tuxum yo'nalishidagi urug'langan tuxumlarni inkubatorga qo'yishdan avvalgi tadbirlar va tuxumlarni sifat ko'rsatgichlari bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

ANNOTATION

This article presents the activities before laying fertilized eggs in the egg direction in the incubator and the criteria for evaluating eggs by quality indicators.

Kalit so'zlar: tuxum, inkubatsiya, tuxum sarig'i, inkubator, tovuq, jo'ja,

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda kichik va yirik parrandachilik fabrikalarining oshib borishi natijasida bir kunlik jo'jalarga bo'lgan talab nihoyatda oshib bormoqda. Shunday ekan tuxumlarni inkubatorida ochirish nihoyatda muhim e'tibor talab qiladigan ish hisoblanadi. Biz reproduktiv tuxumlarga qo'yilgan talablarga binoan tanlab olganimizda yoki shu talablarga to'la to'kis javob beradigan inkubatsiyabop tuxumlarni xorijiy mamlakatlardan xarit qilganimizdan so'ng inkubatorida ochirish vaqtimizda birgina xato tufayli minglab embriionni nobut qilishimiz mumkin. Shunday ekan inkubatsiya davrining me'yoriy va yuqori foizlarda tuxumlardan juja chiqishi uchun sifatli tuxumlarni tanlab olishga ham bog'liq.

Tajriba uslubi. Tuxumlarni inkubatsiyaga tayyorlash jarayonida quyidagi me'yorlar yordamida olib borildi. Tuxumlar g'adir budirligi to'shama karton qog'ozga o'tkir uchini pastga qaratgan holda terilib, tashiladi. Bir bog'lam ichida ko'pi bilan 6 ta tuxum qatori bo'lishi mumkin, ular toza, yuqumsizlantirilgan karton qutilarga joylanadi. Tuxum atrofi harorati 12-18 °C, nisbiy namligi 40-70% bo'lishi, tuxumlar ortilgan avtotransport tezligi asfalt yo'llarda soatiga 80 km. dan, qishloq yo'llarida 30 kmdan oshmasligi talab etiladi. Bunda keskin zarbalar, chayqalishlar bo'lmasligi kerak, aks holda tuxum po'sti zararlanishi, po'st osti pardasining qatlamlanishi, tuxum sarig'i pardasining yirtilishi yuz berishi mumkin. Buning natijasida inkubatsiya arafasida yaroqsizga chiquvchi tuxumlar salmog'i oshadi, inkubatsiyaning 1-5 kunlarida yuz beruvchi embriional o'lim tufayli jo'ja ochish salmog'i tushib ketadi.

Tuxumlar maxsus juxozlangan transport vositalarida tashilishi kerak, bazan kuzovi meyyordagi haroratni bir maromda bo'lishini ta'minlay oladigan darajada berkitilgan boshqa transportda ham tashilishi mumkin.

12-18 °C gacha sovutilgan qog'oz qutilarni ochilgan holda 3-4 soatga qoldirish kerak, shundan keyin xillash xonasiga yuboriladi.

Quyidagi nuqsonlari bo'lgan tuxumlardan foydalanish mumkin emas; qing'ir qiyshiq shakilli, urigan g'ijim po'stli, yupqa po'stli ikki sariqli, siljigan yoki sayyor havo kamerali, muzlatilgan, po'sti ostida dog'lari bo'lgan va boshqa shu kabilar. Tuxum shaklining sal o'zgargan (cho'zinchoq, dumaloq), po'stining nuqtalar yoki chiziq shaklida, sal ifloslangan bo'lishiga (umumiy maydoni 3sm² gacha), tuxum po'stining marmarlangan, belbog'i, kam miqdorda oxaklangan bo'lishiga ruxsat etiladi. Ikki va undan ortiq nuqsoni bo'lgan tuxumlar yaroqsizga chiqarilgani maqul.

Tuxum sifatiga qo'yiladigan talablar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Inkubatsiyabop tuxumlarga qo'yiladigan talablar

1-jadval

Ko'rsatkichlar	Miqdorlari
Sanoat galasini to'ldirish uchun tuxum vazn, g.da	50-74
Nasillik galasini to'ldirish uchun tuxum vazn, g.da	52-73
Tuxum po'sti qattiqligi g/sm ³ (kamida)	1,075
Qayishqoq shakl o'zgarishi, mkm(ko'pi bilan)	23
Oqsil vaznining tuxum sarig'iga nisbati	2,0-2,7
Tuxum po'stlog'ining qalinligi, (kamida)	0,34
Shakil indeksi,%	70-80
Tuxum sarig'ida mavjud moddalar mkg/g	Kamida
Karotinoidlar	15
A vitamini	7
B ₂ vitamini	4
Tuxum oqsilida B ₂ vitamini miqdori mkg/g (kamida)	3
Tuxum sarig'ining kislota qatori, mg KOH/g (ko'pi bilan)	5
Oqsildan vodorod ionlari konsentratsiyasi (pH)	8,5-9,0
Tuxum sarig'ida vadarod ionlari konsentratsiyasi (pH)	5,8-6,2
Urug'langanligi, % (kamida)	88,0
Final gibrid uchun jo'ja ochish salmog'i % (kamida)	78,0

Inkubatsiya oldidan vazniga qarab tuxumlar 50-62 giram va 63-73 grammlik guruhlarga ajratiladi.

Xillangan tuxumlar kovushlarga joylangach, yuqumsizlantiriladi va lozim bo'lsa, maqbul sharoitlar yaratilgan sovutish kameralarida 5 kungacha saqlanadi. Nasillik galadan olingan tuxumlarni 10 kungacha saqlash ruxsat etiladi.

Inkubatsiyabop tuxumlarni saqlash tartibi.

2-jadval

Saqlash muddati, sutkalarda	Harorati, °C	Namligi, %
3 kungacha	20-21	75-80
7 kungacha	14-15	75-80
7 kundan oshiq	12-13	75-80

12-12°C haroratda saqlangan tuxumlarni inkubatsiya davrini 6 kundan keyingi har bir kun uchun 1 soatga cho'zish lozim bo'ladi. 18°C dan past haroratda saqlangan tuxumlar inkubatsiya oldidan 5-6 soat davomida inkubatsiya zali haroratigacha isitilishi kerak.



1-rasm. Inkubatorga yaroqsiz tuxumlar.

Olingan natijalar. Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba xo'jaligida o'tqazilgan tanlash va saralash ishlarida "Lomann sendi" va "Loman LCL-klassik" krosslarining onalik formalaridan olingan 200 donadan tuxumlar tajriba uslubida keltirilgan me'yorlar asosida tanlash va saralash ishlari o'tqazildi. Tajribalar asosida olingan tuxumlar sifat ko'rsatgichlari bo'yicha yaroqli va yaroqsiz tuxumlarga ajratildi.

Nasilli tuxumlarni tanlash va saralash o'tqazilgandan so'ng natijalar

3-jadval

"Lomann sendi"			"Loman LCL-klassik"		
Yaroqli	Yaroqsiz	%	Yaroqli	Yaroqsiz	%
198	2	1	196	5	2

XULOSA

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki "Lomann sendi" krosslarining ota ona shaklidan olingan nasilli tuxumlar "Loman LCL-klassik" krosslarining ota ona shaklidan olingan nasilli tuxumlariga nisbatan 1 % ga sifatliroq ekani ko'rinib turibdi. Biz shuni tavsiya etamizki O'zbekiston hududidagi nasilchilik va xususiy tadbirkorlarga "Lomann sendi" kross tuxum yo'nalishidagi tovuqlarini nasilli tuxumlarini inkubatorlarda ochirganlarida "Loman LCL-klassik" kross tovuqlariga nisbatan 1 % ga ko'proq foyda olish mumkin. Tuxumlarni yanada sifatliroq bo'ishi albatta ota ona shaklining saqlash va asrash hamda oziqlanish jarayoniga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.N.Negreyeva, Ye.N.Tretyakova, V.A.Babushkin, I.A.Skorkina, “Птицеводство на малой ферме”, Michurinsk-naukograd RF-2007
2. Xmel'ninskaya T.A. Ivashkin B.A. Peven B.G. “Xayseks uayt krossi parrandalari bilan ishlash bo'yicha qo'llanma” 2011.
3. Ro'ziyev R. Nurmatov A. “Axoli xonadonlarida tovuqlarni parvarish qilish” “zooveterinariya” №10 2015. 31-bet.
4. Chorvachilik va parrandachilik asoslari M.Z.Murtozayev, A.A.Kushakov, T.A.Aliboyev «Fan va texnologiya» nashriyoti TOSHKENT – 2012
5. “Tuxum yo'nalishidagi parrandalarni parvarishlash bo'yicha tavsiyalar” “PARRANDASANOAT” uyushmasi, Toshkent-2011
6. Несушки руководство по содержанию “Агалик-Ломанн-Парранда” открытое Акционерное Общество.